


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.Б.Ягъяева

Дифференцированный метод обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....114

M.K.Mavlyuda

O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....117

G.A.Asomiddinova

Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati120

N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova

Speech act as an important function of communication125

Sh.R.Muydinov

Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....128

M.Madaminova

Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings
in english lesson130

Sh.M.Yusufjonova

Frazeologizmlar taqiqi.....134

Ш.И.Аскарова

К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении
третичного языка.....137

Ш.И.Аскарова

К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после
английского языка141

Sh.Sh.Dadabayeva

Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....148

Sh.Sh.Dadabayeva

Tarjima jarayonida vaziyatning o'r ganilishi152

Sh.Y.Usmonova

Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....159

Sh.Y.Usmonova

O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....162

Z.Sh.Pazilova

Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi167

Z.Sh.Pazilova

O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari170

R.U.Axrорova

Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema.....173

O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova

Shifonemas in phraseological units related to the period of youth178

R.U.Axrорova

Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy
xususiyatlari182

Z.M.Abdullaev

Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar185

Z.M.Abdullaev

Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi188

I.R.O'rinboyev

Ba'zi na'matak (*Rosa*) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....190

I.D.Yakubov

Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari193

M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon

Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash201

Ё.Г.Абдуганиев

Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой
кислоты205

D.M.Ahmedova

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....215

NEMIS TILI ISMLARI MOTIVLARI VA ISM TANLASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**GERMAN NAME MOTIFS AND FACTORS INFLUENCING NAME CHOICE****МОТИВЫ НЕМЕЦКИХ ИМЕН И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ВЫБОР ИМЕНИ****Abdullaev Ziyodbek Mansurovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti doktoranti, f.f.f.d. (PhD)**Annotatsiya**

Mazkur maqola nemis tili ismlari motivlariga bag'ishlangan bo'lib, uning maqsadi nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy tahlil etishdan iborat. Maqolada ism tanlash usullari, jumladan oilaviy an'analar asosida ism tanlash, til tashqi ta'sirlari asosida ism tanlash kabilar o'rganilgan. Shuningdek, ism tanlashda ism beruvchining ijtimoiy mavqeい tahlil etilgan.

Abstract

This article is devoted to the motives of German names, and its goal is a scientific analysis of the motives of German names and the factors influencing the choice of names. The article discusses ways to choose a name, including choosing a name based on family traditions, choosing a name based on the external influences of the language. Also, when choosing a name, the social status of the name giver was analyzed.

Аннотация

Данная статья посвящена мотивам немецких имен, и ее цель – научный анализ мотивов немецких имен и факторов, влияющих на выбор имен. В статье рассматриваются способы выбора имени, в том числе выбор имени на основе семейных традиций, выбор имени на основе внешних воздействий языка. Также при выборе имени анализировался социальный статус имядателя.

Kalit so'zlar: ism, ism tanlash, motiv, shaxsning jamiyatdagi mavqeи, ism beruvchi, qabila, elat nomlari, hayvon nomlari, diniy motiv

Key words: name, choice of name, motive, social status of a person, name giver, tribe, ethnic names, animal names, religious motive

Ключевые слова: имя, выбор имени, мотив, социальный статус человека, имяноситель, племя, этнические названия, имена животных, религиозный мотив.

KIRISH

Hech bir ism tasodifan tanlanmagani holda, u turli subyektiv va obyektiv o'y-qarashlar, motivlar asosida tanlanadi. Dunyoning barcha xalqlarida farzandga ism tanlashning asosiy omili, ya'ni motivi ismning nom beruvchiga yoqishi hisoblanadi. Lekin o'ziga xoslikka intilish, farzand umri bilan bog'liq turli orzu-istiklar, shuningdek, ismning jozibador va jarangdorligi ham uni tanlashda asosiy motivlardan hisoblanadi. Ko'p hollarda farzandga ism ko'pchilik tomonidan tanlanadi va bunda ism tanlashning birdan ortiq motivlari bog'liqligi yuzaga keladi.

ISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TADQIQOT METODLARI

Ism beruvchi ijtimoiy hayotning vakili sifatida o'zi yashayotgan jamiyat va madaniyatdan kelib chiqqan holda ism tanlaydi.

Ism tanlashda ism tanlovchining jinsi, yoshi, o'qimishlilik darajasi, dini, dunyoqarashi, shuningdek, yashash joyi, millati, barajadigan ish-amali –kasbi, qaysi ijtimoiy qatlamga tegishli ekanligi kabi faktorlar asosiy ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra ismlar asosan ism beruvchi didi, dunyoqarashi va o'y-fikrlari, qisman esa boshqa tashqi faktorlar asosida tanlanadi. Ism tanlash har qanday holatda ham – xoh u ota-onaning istak – xohishlari yoki xoh u tug'ilgan farzand kelib chiqishi, dini yoki mavjud qonunlar asosida qo'yilsa ham to'liq erkin va mustaqil tanlov asosida qo'yilmaydi.

Qadimdan har bir xalqda ism tanlash turli madaniy va ijtimoiy ta'sirlar ostida shakllangan. Shunga asosan quyida ism tanlashda muhim ahamiyatga ega omillar – motivlar tahlil etiladi.

Oilaviy an'analar asosida ism tanlash

Ism tanlashda oilada mavjud an'analar, odatlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tug'ilgan ilk farzand o'z bobosi yoki bobosining bobosi/buvisi yoki buvisining buvisi nomi bilan atalishi nafaqat o'zbek xalqi orasida, balki nemiszabon millatlarda ham urf sanaladi. Yangi tug'ilgan chaqolojni, shuningdek xristian xalqlarida cho'qintirgan ota nomi bilan atash ham mavjud.

Shuningdek, qarindosh – urug'lar orasida muvaffaqiyatga erishgan yaqinlar nomi bilan atalishi mavjud holatlardan biri hisoblanadi.

Ba'zi ota-onalar esa o'z farzandlariga yangi xali qarindoshlar orasida mavjud bo'limgan ism qo'yishni afzal ko'rishadi.

Tashqi til ta'sirlar asosida ism tanlash

So'nggi yillarda nemis ismlari orasida xalqaro ismlar ko'payib bormoqda. Germaniyada chetdan kirgan ismlar asosan grek, yahudiy va lotin tillaridan olingan.

Ism shakli ham tanlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda hozirgi paytda nemis ota-onalar tomonidan o'z farzandlariga qisqa ismlar qo'yilishi odat tusini olgan, shuningdek bu odat uzun familyaga ega farzandlarga ism tanlashda ko'proq namoyon bo'ladi. Shuningdek, nom tanlashda nafaqat ism qisqa yoki uzunligi, balki uning qanday ma'no anglatishi, jarangdorligi/talaffuzi ham xal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning jamiyatdagi mavqeい va uning ism tanlashdagi ahamiyati

Germaniya hududida yashagan elatlarda ism tanlash shaxsning jamiyatdagi mavqeい, o'rni asosida olib borilgan. Qadimdan turli ijtimoiy qatlama xos bo'lgan shaxs nomlari o'zaro bir-biridan shaxsning ijtimoiy mavqeい asosida farqlangan: qirollar ismlari, harbiylar ismlari, graf va knyazlar ismlari. Shunga mos holda shahar va qishloq aholi ismlari ham bir –biridan ma'lum darajada farq qilgan.

Bugungi kunda turli ijtimoiy qatlama xos shaxslar ismlari orasida yuqoridagi kabi ijtimoiy tafovutlar sezilmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yurtimizda o'rta maxsus bilim sohasiga ega bo'lgan ota-onalar orasida o'z farzandlariga turli serial qahramonlari, futbol yulduzlari, mashhur shaxs nomlarini qo'yish holatlari, garchi ular o'zga tilda bo'lsada, keng tarqalgan. Masalan: *Esmeralda*, *Marks*, *Ronaldo* ...

Oliy ma'lumotga ega ota-onalar o'z farzandlariga avvaldan ma'lum bo'lgan, ma'lum ma'noga ega, yoki badiiy adabiyot qahromonlari ismlarini tanlashni afzal ko'radilar.

Nemis ismlari tanlashning ko'plab motivlari mavjud bo'lib, quyida ularning asosiy turlari tahliliga tortiladi:

1. Turli qabila, elat nomlari motivi asosida shakllangan ismlar.

Franko: franko- - frank qabilasi nomidan.

Sahso: .sahso (saks)-saks qabilasiga tegishlilikni ifodalaysi.

Hesso: "hesso"- gest qabilasi nomidan.

Engelbert: angil + beraht /berth (angel + chaqnab turgan).

Engelhart: angil+hart (angel+ qattiq, mustahkam).

Werner -Warin+hau >Wern>h(er) («varin» qabila nomi +qo'shin, askar).

2. Hayvon nomlari motivlari asosida shakllangan ismlar.

Mazkur turdag'i ismlar ham qadimgi davrlarda shakllangan. Hayvonlarga tegishli bo'lgan xususiyatlar nomlar asosida insonlarga ham o'tadi deb ishonilgan.

Arnold: arn + bald (burgut + tez).

Arnulf: arn +wolf (burgut + bo'ri).

Bernhart: bero+ hart (ayiq + kuchli) – ayiq kabi kuchli.

Wolfram: wolf+ (h (raban >raben) >ram) (bo'ri + qarg'a).

3. Diniy motivlari asosida shakllangan ismlar.

Ko'plab german qabilalari ismlari diniy motivlari asosida shakllangan

Abracham- "Der Vater ist erhaben" (Ota – ulug, buyuk.)

Adam- "Erdgeborener". (« yerda tug'ilgan»)

Daniel-"Gott hat gerichtet"(Xudo hukm qilgan.)

Dewes, Debes-"Geschenk Gottes"(Xudodning in'omi)

Ehregott -"Ehre Gott!"("Xudoni ulug'la!")

Elisabeth-"Gott hat es geschworen"("Xudo so'z bergan/ont ichgan")

Furchtegott - "Fuerchte Gott!" (Xudodan qo'rqi!)

Gottlieb-"Dem Gott lieb"(«Xudoga sevimli»)

Johannes: yahudiycha Jochanan (*Gott ist gnadig*) (*Jan, John Hans*) „Xudo mehribon”.

Michel<*Michael*-"Wer ist wie Gott"("Kim Xudo kabi")

Merten < *Martinus* < *Martins* < *Mars* (Urush xudosi)

Sameul -"von Gott erhört"("Xudo tomonidan eshitilgan")

Zacher- "Gott gedenkt" («Xudo tomonidan eslangan/berilgan»)

4. Inson tashqi qiyofasi yoki ota-onha istak-xohishini ifodalash motivlari asosida shakllangan ismlar.

Bruno - braun so'zidan yasalgan.

Brosel: Ambrosius-griechisch. .der Unsterblich (o'Imas)

David - hebr."Geliebter""Lubling"(sevib qolgan)

Ernst – qadimgi nemis tilidagi „jiddiy“ ma'noli ernest so'zidan

Grete/Margarethe – griech "oerle"-gavhar.

Isack - hebr."Der Heitere (quvnoq, yorqin, nurli)

Kunst/Konstantin-lat-"der Standhafte"(mahkam, mustahkam)

Katharina - hebr." Die Reine"(ozoda)

oetrius< greich Fels (qoya)

Rubinemund: "Rubin+ mund" (yoqut labli)

Rosalinde: Rose + linde (atirgul kabi yumshoq).

Susanne -hebr. "Lilie" (Liliya)

Har bir inson jamiyat va o'zi uchun ma'lum ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ismga ega bo'ladi. Har bir xalq madaniyatida ismlar inson tomonidan tanlanishi mumkin bo'lgan belgi hisoblanadi. Ism va familiyalar asrlar davomida sayqal topgan va jamiyatga mos holda shakllangan va bugungi kungacha yetib kelgan. Dastavval ismlar paydo bo'lgan bo'lib, jamiyatda bir xil ismlilik tushunmovchiliklarga sabab bo'la boshlagan va shu asosda familiyalar shakllana boshlagan. Misol uchun nemis tilidagi *Mueller* - tegrimonchi kasbi asosida shu shakldagi familiya shakllangan.

XULOSA

Xulosa o'rnila aytish mumkinki, zamonaviy nemis tili ismlari turli motivlar asosida ko'plab shakliy va fonetik o'zgarishlarga uchragan holda bugungi kunga yetib kelgan va shu sababli ham nemis ismlari yuzaga kelish motivlari yashirin holda bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev, Ziyodbek M. "The Name As An Indicator Of Cultural And Social Development." *Oriental Journal of Philology* 2.02 (2022): 15-19.
2. Kunze, Konrad: dtv-Atlas Namenkunde. Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet. Digitale Bibliothek Band 124. Berlin: Directmedia Publishing GmbH. 2005.
3. Shin, Kwang Sook. Schichtenspezifische Faktoren der Vornamengebung. 1979.
4. Ziyodbek, Abdullaev. "Personennamen Im Deutschen Und Usbekischen: Eine Kontrastive Untersuchung." Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал 1, https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf (2017).